

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY KINOLAR PALATASI

Haqiqatan ham, eng qadimiy, ildizlari olis «Avesto» zamonlariga borib tutashadigan, uch ming yildan ziyod tarixga ega bo'lgan Navro'zi olam – sharqona yangi yil o'zining yangilanish, bahor nafasini boshlab kelishi, xalqimizning tabiati, ong-u tafakkuri, qalbi shuuriga chuqur singib ketgani, har qaysi oila, har qaysi xonadonga shod-u xurramlik olib kirishi bilan biz uchun eng qadrlı, aziz va suyuqli milliy bayramdir.

Islom KARIMOV



Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

2008-yil
17-mart
№13
(66657)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

ASSALOM, NAVRO'ZI!





22-Mart
Mirzo Ulug'bek
tavallud topgan
kun

«Salom, aziz gazetam! Men sening har bir soningni intiqlik bilan kutaman, unda chop etilgan har bir maqolangdan xulosa chiqaraman. Ularning bari men uchun saboq bo'ladi, meni ham ijod qilishga undaydi. Men ham she'r yozishga juda qiziqaman. Ammo hozirda yozganlarimdan ko'nglim to'lmayapti. Shu bois ham, kelgusida qalamimni charhlab, albatta senga o'zining ijod namunalarimdan yuboraman».


Begzod IBRAGIMOV,
Surxondaryo viloyati,
Sho'rchi tumanidagi
20-umumiy o'rta ta'lim
maktabining 11-«B»
sinf o'quvchisi

Aziz bolajonlar,
bu tahririyatimizga kela-
yotgan maktublardan biri,
xolos. Biz sizlardan kelgan har bir
maktubni ko'zdan kechirib, imkon
qadar gazetamiz sahifalarida chop
etishga harakat qilamiz. Endi
tengdoshlaringizning bizga
yuborgan maktublari bilan
tanishing:

Shuningdek, tahririyatimizga quyidagi
manzillardan maktublar kelgan:

Nigora TOG'AYEVA, Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumani, Agrosanoat kolleji talabasi; Humayra ESHMO'MINOVA, Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanidagi Berdoli qishlog'i; Ibadat SAYDULLAYEVA, Jizzax viloyati, Forish tumani; Xumora ABDUVAKILOVA, Toshkent viloyati, Olmalik shahri; Shohsanam ISLOMOVA, Jizzax viloyati, Forish tumani; Dilshoda Egamberdiyeva, Sirdaryo viloyati, Boyovut tumani; Muhayyo RAJABOVA, Xorazm viloyati, Shovot tumani; Mahliyo HALILOVA, Samarqand viloyati, Ishtixon tumani, 21-maktabning 3-«A» sinf o'quvchisi; Zohid SHUKUROV, Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 197-maktabning 7-«D» sinf o'quvchisi; Nozima ABUQODIROVA, Namangan viloyati, Kosonsoy tumanidagi 16-maktabning 9-sinf o'quvchisi; Abbos

CHORSHANBIYEV, Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani; Gulruhsor SHERJONOVA, Xorazm viloyati, Yangibozor tumani; Maftuna ERGASHEVA, Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani; Dinora RAHMATULLAYEVA, Xorazm viloyati, Yangibozor tumani; Dilshoda RUSTAMOVA, Xorazm viloyati, Yangibozor tumanidagi 15-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi; Mahfuza TURG'UNBOYEVA, Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi 26-umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchisi.



ishlab turibdi.


Fursatdan foydalanib, barcha tengdoshlarimga «Tong yulduzi»ga obuna bo'ling, demoqchiman. Chunki «Tong yulduzi»ga yetadigan gazeta yo'q-da!

Navro'z JABBOROV,
Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumani



Men ham bu faslning go'zalliklaridan ilhom olib, rasm chizib tahririyatga jo'natdim. Chizgan rasmim tengdoshlarimga yoqsa, boshim ko'kka yetardi.

Madinaxon OQILOVA, Sirdaryo tumanidagi 41-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi



Bolajonlar! Gazetamizda chop etilayotgan maqolalar sizga ma'qulmi? Sahifalarda yana qanday maqolalar o'qishni istardingiz? Bu haqdagi fikr-mulohazalaringizni kutamiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA

HAR DARSIDA YANGILIK



Uy vazifasiga «Erkin mavzu» berilgan edi. O'quvchilar shoir va yozuvchilarning she'r va monologlardan o'qib berishdi. Ayrim o'quvchilar esa o'z ijodidan she'r, hikoya va topishmoqlarini aytib darsni yana-da jonlantirishdi.

O'qituvchi Nodira Rashidovaning har bir dars soati ana shunday qiziqarli o'tadi. O'quvchilar bir ovozdan «Ustozimning darslarini intiqlik bilan kutamiz, sababi har bir darsga albatta bir yangilik olib keladilar-da», - deyishdi.

MATEMATIKA DARSIDA

Umida Turimova maktabning eng jonkuyar o'qituvchilaridan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi. Aniq fanlarga unchalik xush ber maydigan o'quvchilar ham ustozning darslaridan so'ng albatta matematika fanini yaxshi ko'rib qolishadi, qiziqishadi, o'rganishga intilishadi.

– Mening o'quvchilarim kelajakda o'z o'rinlarini topib, halol insonlar bo'lib yetishsa, shuning o'zi men uchun baxt, – deydi Umida opa.



BARCHINOYGA
TENGLASHGAN MUALLIM,

– shunday deyishadi jismoniy tarbiya o'qituvchisi Zuhraxon Rahimovani. Ha, chindan ham o'z kasbiga mehr berib, o'z o'quvchilarini sportga jalb eta olayapti.

Poytaxtimizning Sobir Rahimov tumanidagi 249-maktabida bo'lganimizda, yuqoridagi mehdariyo, bilimdon va talabchan ustozlarga ro'para keldik. Ularning darslarini kuzatdik.

Tinib-tinchimas muallimlar «Yil o'qituvchisi» ko'rik-tanlovlari faol qatnashib kelayotgani ham fikrimiz ishottir.

«Tong yulduzi» tahririyati mashaqqatli va albatta sharafli kasb egalari bo'lmish ustozlarga ezgu niyatlar tilaydi.

Jamshid NABIYEV



Xudoyberdi TO'XTABOYEV,
O'zbekiston xalq yozuvchisi



HURMAT QILGAN, HURMAT KO'RADI

Xalqimizning sevimli bayramlaridan biri bo'lmish Navro'z ayyomi uzoq yillardan buyon nishonlanib keladi. Tabiat go'zalligi ham aynan mart oyidan boshlanishi bejiz emas. Insonlar ham xuddi tabiat singari yangi liboslar kiyib, Navro'zni kutib oladilar. Dehqonlar dalaga qo'sh haydab chiqqan, daraxtlar ekilgan, ariqlar qazilgan, xullas, tabiat uyg'ongan. Navro'zni qutlash uchun buvijonlar sumalak tayyorlashib charchamaydilar.

Bularning barchasi bir so'z bilan aytganda, otabobolarimizdan qolgan urf-odatlar, udumlar sirasiga kiradi. Aziz bolajonlar, qadrlil o'g'il-qizlarim! Siz ham ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan urf-odatlarini, milliy qadriyatlarimizni hurmat qilib, kelgusida avlodlaringizga yetkazing. Zero, kimki bobosini hurmat qilsa, o'sha kishi nabirasidan hurmat ko'radi. Buni doimo yodingizda saqlang va unga amal qiling.

Navro'z ayyomi qadim-qadimdan yurtimizda bahor bayrami, yangi kun sifatida keng nishonlanib kelingan. Olimlar Navro'zni Ahlmoniylar davri (mil.avv. 558-330)dan beri bayram qilishgan, deb hisoblashmoqda. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, Jamshid («Shohnoma» asari bosh qahramonlaridan biri) podshoh bo'lgandan keyin, ma'jusiylar dinini yangilagan va bu voqea Navro'z – yangi kun deb atalgan. Uning fikrini Mas'udiyning «Muruj az-zahob», Ibn al-Balxiyning «Burqoni qoti» asarlarida keltirilgan ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Navro'zni bahorda nishonlash ham aynan shu paytlardan boshlangan.

MO'JIZALAR ESHIGI

Jahondagi nainki ixtirolar, adabiyot va san'at asarlari garchi mo'jizaviy tuyulsa-da, inson tomonidan yaratilgan. Demak, har biringizning qo'lingizda dunyoni larzaga soluvchi kashfiyotlar yaratish, yutuqlarga erishish imkoniyati bor. Istardimki, ana shu imkoniyatlarni qo'ldan chiqarmasangiz. Imkoniyat esa Sizning kuch-quvvat, shijoatga to'la yoshligingizdir. Buning uchun har bir daqiqadan unumli foydalanib, maqsadingiz sari olg'a intiling. Yiqilib qolsangiz ham ko'zingizga yosh olmay, yana mehnat qiling. Irodangiz va ezgulikka to'la qalbingiz doim hamrohingiz bo'lsin. Shunda bir kun kelib Siz mo'jizalar eshigiga kalitni topasiz va undan butun dunyo hayratga tushadi.



Kavsar TURDIYEVA,
bolalar shoirasi

Hamal kirdi — amal kirdi

Aziz o'quvchilar!

19-fevraldan to 21-martgacha Hut oyi davom etadi. Bu oyning o'zbekcha nomi Baliqdir. Uning oxirgi yetti kunini Ajuz kampir davri, deyishadi. Ajuz kampir: «Hoy, to'qson (Qish nazarda tutilyapti), g'azab qilsam, bir kunimcha yo'qsan», der emish. Chindan ham xuddi shu kunlarning biroz izg'irinli o'tgani ma'lum.

Dehqonlar esa: «Hutning har daqiqasi kuzning o'n kuniga feng», deyilgan o'gitga amal qilishib, dala ishlarini qizitib yuboradilar.

HUTNING
OXIRGI KUNI

Bog'bonlar daraxtlarga ishlov beradilar.

Olaqarg'a hadeganda ketmasa, sovuq davom etadi.

Mushuk yerga ag'anasa, yog'ingarchilik bo'ladi.

Hut oyining yana bir xislati, dorivor maysalar, o't-o'lanlar, xususan, yalpiz, jag'-jag', chuchmoma, kiyiko't va boshqa ko'katlar bo'y cho'zib qoladi. Abu Ali ibn Sino bobongiz ulardan to'yib yegan kishining sog'lom bo'lishini alohida ta'kidlab o'tganlar.

Xullas, Hut ana shunday ne'matlar konini yaratib, o'z o'rnini Hamalga topshiradi.

HAMALNI BILASIZMI?

Bu Qo'y oyi bo'lib, 22-martdan 20-aprelgacha 30 kun davom etadi. «Hamal kirdi, amal kirdi», deydi dehqonlar. Chunonchi, kechalari harorat past bo'lishiga qaramasdan, dala-qirlar ko'm-ko'k maysaga burkanadi, o'rik, olcha va boshqa mevali daraxtlar qiyg'os gullaydi.

Turnalar arqoni janubdan shimolga tortiladi. Qaldirg'och, zarg'aldoq, eng so'nggida, ko'k Qarg'a uchib keladi. Xalq orasida «Ko'k Qarg'aning kelishi – sovuqning tugashi», deyilgani bejiz emas.

Siz, aziz o'quvchilar, ularga g'amxo'rlik qilishingiz, qo'lingizdan kelsa, uyalar yasab qo'yishingiz kerakki, tabiatda bu jonivorlarning ko'payishi biz uchun ham boylik, ham go'zallikdir. Laylak yoki turnalarni ko'rib, qanchalik quvonasiz. Shunday qushlar ham borki, ular dala zararkunandalariga qiron keltirib, hosilni saqlab qolishga yordam beradi. Chunki tabiat hisob-kitob bilan yaratilgan.

Shunday qilib, Hamalning birinchi kuni, ya'ni 22-martda kecha bilan kunduz tenglashadi. Tun ham 12 soat, kun ham shuncha davom etadi. Dunyoning hisob-kitobiga qarang: har yili bu holat bir kunda, bir vaqtda takrorlanadiki, bundan hayratga tushmasdan ilojingiz yo'q.

KUN UZUNMI, TUN UZUN?

Quyosh bir yilda ikki marta Olam Ekvatori chizig'ini kesib o'tadi. Bu burchak 23 daraja 27 daqiqani tashkil etadi. Bu hodisa, yuqorida aytib o'tganimizdek, 21-mart oqshomi sodir bo'ladi. Uni bahorgi tenglik kuni deyishadi. Ikkinchisi esa, kuzgi tenglik 23-sentabrda to'g'ri keladi. Shu ikki kunda kechasi ham, kunduzi ham 12 soatdan teppa-teng bo'ladi.

TAQVIMLAR QANDAY TUZILGAN?


Quyosh Olam Ekvatoridan o'tgan daqiqadan boshlab, Ona Sayyoramizning Shimoliy yarim sharida bahor fasli boshlanadi. Janubiy yarim sharda esa kuz dohil bo'ladi. Qadimgi otabobolarimiz, shuningdek, yunonlar, misrliklar taqvim tuzishda quyoshning koinotdagi yuqorida ko'rsatib o'tgan harakatlarini asos qilib olganlar. Quyosh Olam Ekvatorini kesib, Shimoliy yarim sharga o'tgan daqiqada Yangi yil kiradi. Uni Navro'z deb atashgan.

Bundan ikki ming ikki yuz yillar oldin xuddi shu kunda yunon va Rim munajjmlari burjy yulduzlar xaritasini tuzganlar.

Muhammad alayhissalom milodiy 622-yili 16-iyul kuni o'z yaqinlari bilan Makkadan Madinaga chekinishga majbur bo'ladi. Buni «Hijrat» deyidilar. Hazrat Umar buyrug'i bilan Oyning Yer atrofidan aylanishi harakatiga asoslanib tuzilgan taqvim – hijriy-qamariy deb yuritiladi. Bu 354 (Kabisa yili 355) kecha-kunduzdan iborat. Shu sababli, uning Yangi yili ham, islom marosimlari va bayramlari ham har yili o'n bir kun oldin keladi. Bu hodisa 33 yil davomida hamma fasl va oylarni bir sira aylanib chiqadi. Ko'rinib turibdiki, bunda ancha chalkashliklar bor.

Sharq ulamo va munajjmlari o'n birinchi asrda 365 kunlik burjy yoki hijriy-Shamsiy (Quyosh) yil hisobi davrasini qayta ishlab chiqdilar. Ammo Shamsiy yil ham Muhammad alayhissalomning Makkadan Madinaga ko'chishlaridan boshlanadi va unga ham «hijriy» so'zi qo'shiladi.

Ko'ngillarga ko'chgan satrlar



SALOMATLIK INSONNING XAZINASI, – deydi «Sog'lom avlod uchun» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi raisi Dilbar Alimjonova

hamkorligi bor. Unga ko'ra, mazkur mamlakatlardagi 12 yoshgacha bo'lgan bemor va nogiron bolalarni davolash va reabilitatsiya qilish bilan shug'ullanadi.

120 nafardan ortiq bolalar o'z sog'lig'ini tiklab qaytdilar. Ayni paytda 18 nafar bolajonlar davolanmoqda. Kuni kecha surxondaryolik Ne'matilla va Farruhjon, buxorolik Muhridinjonni Olmoniyaga yubordik.

Farzandlarimizni jismonan sog'lom, ma'nan yetuk qilib tarbiyalash har birimizning oliy maqsadimizdir. Sog'lom insonning hayoti ham, orzu-umidlari ham sog'lom bo'ladi. Shuni aytadilar-da, salomatlik insonning xazinasidir, deb. Uni asrab-avaylash esa har birimizning qo'limizdadir.

Feruza SOYIBJON qizi yozib oldi

– Bugun yurtimizda Navro'zi olam kezib yurgan pallada, Siz aziz gazetxonlar bilan «Tong yulduzi» orqali uchrashib turganimdan baxtiyorman.

Prezidentimiz tomonidan ushbu yilni «Yoshlar yili» deb nomlanishi esa bizning oldimizga yana-da katta mas'uliyat yuklaydi.

Ma'lumki, bir necha yildan beri bizning jamg'armamiz Germaniyaning «Fridensdorf Interneyshnl» xalqaro tashkiloti bilan hamkorlik qiladi. Shuni alohida ta'kidlashim lozimki, bu tashkilot dunyodagi 35 dan ziyod davlatlar bilan

Tursunboy
ADASHBOYEV,
bolalar shoiri

ILK QUVONCH

Bundan rosa 53 yil avval bolalarimizning mazkur to'ng'ich gazetasiida birinchi mash-qim bosilgan edi. Yetmish yosh arafasida «Tong yulduzi» jamoasiga ahillik, gazet-xonlarga omad, Navro'z ayyomida esa bolalar shoirlariga qaynoq ilhom tilayman.



AYYOM MUBORAK, BOLAJONLAR!

Qishning qahrini sindirib, sovuqlar zahrini kesib – «tindirib», chehralarga tabassum indirib, aziz yurtimizga gulyuzli bahor kirib keldi. Kurtaklar qaboqlarini ochib, atrofga xandalar sochib quyosh bilan salomlashishga kirishdi. Havolar iforlasha, bog'lar dilbarlasha boshladi.

Aziz bolajonlar, men Sizlarni «Yoshlar yili»ning go'zal va o'xshashi yo'q Navro'zimiz bilan chin dildan qutlayman. O'qishlaringizga muvaffaqiyatlar tilayman.

Bolaligimda yozgan ushbu she'rimni bayram tuhfasida e'tiboringizga havola etaman:

Bahor keldi
Sevinib,
Bulut to'kdi div-div yosh,
Nuri bilan chulg'aydi

Zaminni boboquyosh.
– Ko'z yoshingni artib ol, –
Degandayin jilmayib,
Tutdi kamalak – ro'mol.

*Abdurahmon AKBAR,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi*



USTOZIM

Qalblarga nur berar har bir so'zingiz,
Mudom porlab turar nurli yuzingiz.
Bizga baxtli hayot bergan o'zingiz,
Qo'llar ko'ksimizda qilamiz ta'zim,
Jonajon, mehribon, aziz ustozim.

Yosh to'kmang, g'am ko'rmang hayotda aslo,
Taningiz sog' bo'lsin, qaddingiz raso.
Bizlarga tilaysiz mudom oq duo,
Qo'llar ko'ksimizda qilamiz ta'zim,
Jonajon, mehribon, aziz ustozim.

Bizga ta'lim berib charchamang sira,
Qalbimiz hech qachon bo'lmagay xira.
Menman, shogirdingiz jajji shoira,
Jonajon, mehribon, aziz ustozim.

*Madina OCHILOVA,
Jizzax viloyati, Baxmal tumanidagi
8-o'rtta maktabning 5-«V» sinf o'quvchisi*

MEN SEVGAN ONA DIYOR

Hur diyor deb atalmish,
Shu yurtning farzandiman.
Chin yurakdan Vatan uchun,
Qalqonga aylandim man.

Hilpiragan bayrog'ing,
Elitadi tilakka.
Ko'zga surtib giyohing,
Asragayman yurakka.

Osmonimni hech qachon,
Qoplmasin bulutlar.
Orzularim cho'qqisida,
Uchib yurgan burgutlar.

Yurt uchun yonib yashash,
Dilimda mangu shior.
Doim gullab yashnagin,
Men sevgan ozod diyor.

*Yulduz SHIRINBOYEVA,
Samarqand viloyatidagi
58-o'rtta maktabning
11-sinf o'quvchisi*

NAVRO'Z

Navro'z

Naqorat:

Bahor keldi elimizga:
Navro'zoyni yetaklab.
Jajjigina qizaloqlar,
Gullar terar etaklab.

Sho'x bolalar qiyqirishar,
Varrak uchsa havolab.
Ari tabib uchun yurar,
Har bir gulni davolab.

Bedorlikda kurtak ochib,
Barg yozadi daraxtlar.
Mo'jizaga duch kelganday,
Quyosh ko'zi charaqlab.

Bir zumgina yomg'ir yog'ib,
Ko'kni bezar kamalak.
Bir tarafda onaxonlar,
Pishirishar sumalak.



TURNALAR

– Sirlaridan biri bu
Ko'kni quchgan jonlarning.
Turnalardir azaldan
Do'stlari insonlarning.

Yo'l tortadi payt kelsa,
Bilmay tun-u nahorni.
Turnalar qanotida
Keltiradi bahorni.

Turna qanotin yuvar
Bulut yoshi – suvlari.
Yurakni orziqtirar,
Ularning hay-huvlari.

Turna sasini tinglab,
Bulbullar sayrashadi.
Arqonlarini ko'rib,
Bolalar yayrashadi.



Fasllar malikasi,
Bahorni shodon kuting.
Turnalar ne deyishar,
Bolalar, quloq tuting.

*O'ljamurod MAMASHEV,
Surxondaryo viloyati, Sho'rchi
tumanidagi 20-maktab o'qituvchisi*

Qizlar daftari



Xalqimizning milliy bayramlari, urf-odatlari, qadimiy udum va an'analari asrlar osha sayqallanib kelayapti. Yurtimizga oshiqqan Navro'z bayrami ana shunday shodiyonalarning eng kattasi, eng quvonchlisi desam, fikrimga qo'shilsangiz kerak-a, aziz gazetxon?!

ASRLARNI MUNAVVAR
ETGAN BAYRAM

Aytishlaricha, avvallari bu bayramni nishonlash ta'qiqab qo'yilgan ekan. Mustaqilligimiz sharofati bilan u yana yurtimizga qaytdi, ota-bobolarimiz armonlari ushaldi. Bugungi kunda uning shukuhi, ruhi, kayfiyati yetib bormagan hech bir go'shasi qolmadi yurtimning.

Bu bayram haqida juda ko'plab rivoyatlar bitilgan. Navro'zoyning tansiq taomi bo'lmish sumalakning nima maqsadda tayyorlanishi haqida eshitganim bor. Aytishlaricha, bir qozondan taom yegan kishilar qondoshlardek yaqin bo'lib ketisharkan. Katta-katta doshqozonlarda sumalak pishirib, xalqqa tarqatilishidan ko'zlangan maqsad ham aynan shu: ular orasidagi mehr-oqibat, do'stlik va samimiyligini tuyg'ularini yana-da mustahkamlash ekan. Bibi Fotima onamiz sumalak pishirishga bosh-qosh bo'lmasalar, tong chog'i sumalakka besh barmoqlarini urmasalar, taom qiyomiga yetmaydi, degan fikr bor.

Bayram yurtimizning turli go'shalarida turlicha udum va marosimlar bilan boyitiladi. Xorazmda Navro'z dasturxoniga jo'xori, bug'doy, arpa, tariq, guruch, loviya, mosh kabi yetti xil dondan tayyorlangan «Navro'z-go'ja» tortilarkan. Qadimda yoshullilar bir la'liga olma, anor, uzum, nok kabi meva-chevalardan



solib, ustiga rayhon yaprog'ini qo'yib, Xonning huzuriga olib kirishgan va Navro'z kelganini xalqqa e'lon qilish uchun ruxsat so'rasharkan. Xon ruxsat bergach: «Navro'z keldi!» deya jar solishgan ekan. Navro'z bayramida azim o'rik daraxtlariga arqon tashlab, arg'imchoq uchiladi. Qorako'llik momolar Navro'zda arg'imchoq uchgan kishining ag'rami (og'irligi) to'kilishiga ishonishsa, ba'zi joylarda arg'imchoq uchgan kishining gunohlari to'kiladi, deb hisoblasharkan.

Qashqadaryoliklar bayram kuni yong'ir yog'ib qolsa yoki biror sababga ko'ra bayram nishonlanmay qolsa, bu kunni «Kuni bekor» deb atab, ertasiga albatta bayram qilisharkan. Bayram dasturxoniga majnuntol, behi, anor, bodom, pista, yong'oq kabi yetti xil daraxt novdalari qo'yilarkan.

Asrlarni munavvar aylagan Navro'zimiz qayerda, qanday nishonlanmasin, uning umrboqiyligi davom etsin, quvonch-u shodliklari barchamizga yor bo'lsin!

Umida SHARIPOVA,

Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi 2-umumiy o'rta ta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

OQ LIBOSI YARASHGAN



Insonning dunyodagi eng bebaho boyligi – salomatligi posboni bo'lmish shifokorlarni, oq xalatli farishtalar, deb atagim keladi.

Ular xasta insonlar dardiga nafaqat muolaja-yu dori-darmonlar, balki shirinsuxan, xushmuomalaliklari bilan ham malham bo'lishadi-da.

Ma'lumki, bemor insonlar ancha tajang bo'lib qolishadi. Injiqliklarini ko'tarish, xasta ko'ngillariga yo'l topa bilish esa har kimning ham qo'lidan kelavermaydi.

Bu borada shifokorlarimizning oldiga tushadigani yo'q. Shirinso'zlari bilan

bemorlar qalbida umid chirog'ini yoqa bilishadi ular.

Dildora Nuriddinova ham oq xalatli farishtalardan biri. O'zi mehnat qilayotgan Toshkent viloyati o'sma kasalliklari shifoxonasida uni hamma yaxshi ko'radi. Yoshi ulug'roq bo'lgan bemorlar esa, qo'li yengil hamshira qizim, deya erkalatishadi.

Dildoraning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari juda ulkan. – Mazkur yilning yurtboshimiz tomonidan «Yoshlar yili» deya e'tirof etilishi biz yoshlar uchun imkonlari eshigini yana-da kengroq ochib berdi, – deydi u kelgusidagi rejalari haqida to'xtalib. – Bu yog'i esa o'zimizga, harakat va intilishlarimizga bog'liq. Hozirdanoq bilimimni amaliyotda boyita borib, kelgusida mohir shifokor bo'lmoqchiman. Tengdoshlarimning esa, eng avvalo, salomat bo'lishlarini istayman. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi. Shifokor bo'lsam, diyorimiz ravnaqiga ozmi-ko'pmi o'z ulushimni qo'shgan bo'laman.

Ko'ngli ham oq xalatidek oppoq, beg'ubor bo'lgan Dildoraxonni Navro'z ayyomi bilan samimiy qutlab, orzulari hamrohi bo'lishini tilayman.

Nodira MURODOVA,

Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumani

Navro'z

– YANGI KUN DEGANI

Xalqimizning milliy bayrami bo'lmish Navro'zning tarixi haqida ko'p eshitganman. Lekin u haqida yana-da ko'proq bilgim, yangi-yangi ma'lumotlar olgim kelaveradi.

Navbatdagi suhbatdoshim tarix fanlari nomzodi Jumagul opa Abdurahmonova bilan qilgan suhbatimiz mavzusi ham aynan Navro'z haqida bo'ldi.

– Bolaligimda Navro'zni umumxalq bayrami sifatida nishonlaganini eslojmayman. Bayram faqat oila davrasida, qo'ni-qo'shnilar, yor-u birodarlar bilan nishonlanardi, xolos. Yurtimiz mustaqillikka erishgandan keyingina bu milliy bayramimiz keng miqyosda, xalq sayli sifatida tantana qilinadigan bo'ldi. Unut bo'lib ketgan urf-odatlarimiz, udumlarimiz qayta tiklandi.

Navro'z tarixi qadimga borib taqaladi. Abu Rayhon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida Quyosh yili hisobida yilning birinchi oyi Farvardin, ya'ni hamal oyi haqida, bu oyning birinchi kuni Navro'zdur, – deb yozgandi. Yana bir manbaa – Firdavsiyning «Shohnoma» asarida Navro'z bayramining kelib chiqish tarixi Eron shohi Jamshid nomi bilan bog'lanadi.

Bayram shukuhi yurtimiz uzra kezib yurgan ayni kunlarda barcha yurtdoshlarimni, ayniqsa, varraklar poygasini avj oldirib yuborgan siz bolajonlarni yangi kun bilan muborakbod etaman.

Jumagul opaning tilaklariga men ham qo'shilaman. Barcha tengdoshlarimni bahor ayyomlari bilan tabriklayman.

Qizlarxon YO'LDOSHEVA,

O'zMU qoshidagi S.Rahimov akademik-litseyi 2-bosqich talabasi

BUGUN YANA
YURTIMDA
BAHOR

Bugun yana yurtimda bahor,
Tong shamoli sokin yeladi.
Tolbargakmi zulfimda ifor,
Kabutarday uchgim keladi.
Yashillik bu yoshlikka timsol,
Qir-adirda uyg'onar hayot.
O'n besh kunlik kelinchak misol,
Orolanib qolar tabiat.
Kurtaklarda ilhaq bir nigoh,
Boqib turar ko'z uzmay bedor.
Har bir g'uncha olamdan ogoh,
Tabiatning ko'rkidir bahor.
Peshvoz chiqar yurtimga Navro'z,
Gullarini taqar chakkamga.
Jilosidan qamashadi ko'z,
Bahor isi to'lar o'lkamga...

Dilafro'z XUDOYBERDIYEVA

Oydin HOJIYEVA,
O'zbekiston xalq shoirasi

YANGI KUNNING YULDUZI

Bolaligimizda bayramlar va hayitlarni sog'inib kutardik. Bayram kunlari opam, pochcham jivanlarim va menga hayitliklar olib kelishardi. Gildan yasalgan loyhushtak, har xil turli jonivorlarning shakllari tushirilgan o'yinchoqlar, o'g'il bolalarga xo'rozqand, surnaycha berishardi. Qizlarga esa saqich, chanqovuz, kashta tikish uchun turli shoxi mulinalar sovg'a qilishardi. Kichkina qishlog'imiz Xojai Bo'ston surnaylar ashulasiga, qo'g'irchoqlarning ko'rgazmalariga to'lib ketardi. Biz bolakaylar kattalarga ergashib Xojai Bo'ston ziyoratgohiga chiqardik. Unda unashtirilgan kelinchaklarga quda tomondan turli pishiriqlar olib borilar va hayitga chiqqanlarga ulashib berilardi. Biz ham hayitlik olib, uloqchaday dikirlab uylarimizga qaytardik. O'tgan ajdodlarimizning xotirasini yodlab tilovat qilishganda, ko'nglimiz mumday erirdi.

Mana endi Navro'z bayrami ulkan xalq shodiyonasiga aylanib, yurtimiz bog'rog'larida obodonchilik ishlari qizg'in. Ulug' bobolarimiz yotgan xobgohlar ham obod go'shalarga aylangan. Keksalar, nogironlar va xastalardan xabar olgani borayotgan yosh-yalangni ko'rib, suyunasan kishi. Kelinchaklarning iboli salomlaridan ona zamin yasharib ketadi. Yangi nihollar o'tkaziladi. Dalaga qo'sh chiqadi. Bahor daryoday sharqirab yuraklarga kirib keladi. Bu shodliklar odamlarni yashartirib, umrini uzaytiradi. Dunyoning, odamlarning yangi kuni, yangi hayoti boshlanadi. Yangi narsa esa doimo qadri va suyumlidir. Hamisha navqiron va qadimiy Navro'z bayrami kunlarida aziz farzandlarimizga eng yorug' tilaklarimni bildiraman.



NAVRO'Z

O'riklar shoxida yondi ming chiroq,
Pushti kapalaklar qo'ndi bodomga.
Oftob bir qizdirsa ko'zlari qora
Lolaqizg'aldoqqiz chiqvolar tomga.

Jilovsiz toychoqday yugurar kishnab,
Qish bo'yi esnagan erinchoq soylar.
Bahor bisotidan ketadi yashnab,
Kelinchak uyiday ko'hna saroylar.

Sumalak boshida kelinlar chechan
Lutfida dunyo ishq, sirga aylanan.
Yomg'ir qo'bizini chaladi sho'xchan,
Somonlar tilloga, durga aylanan.

Tarnovda pat tarab oshiq musicha
Sho'x-sho'x muchchilashib baxshi bo'lodir.
Kavrak ildizi-yu cho'l andizicha
Bol kirib chechakdan yaxshi bo'lodir.

Xazin mozoriston daraxtlari-da
Armon gularini to'zg'itib porlar.
Qabrtoshning vido dastxatlarida
Xotira shu'lasini o'qir bahorlar.

Hayot abadiydir. Hayot - g'animat,
Dovul qoqar jarchi, bong urar Navro'z.
Ne chog' sehgarsan, ona tabiat,
Har bir hujayrada yoqasan yulduz.

Ming torli soz kabi saslanar Inson
Navro'ziy sabolar ohangida mast.
Tonggacha bahoriy zavq ichra jahon
Bir quchoq guldasta bo'lsa ajabmas.



- Mendan oladiganingni olib qol, bolam. Men senga Onaxotinning nuri yor bo'lsin, deyman.

- Onaxotin kim, buvijon? U zot haqida hech narsa bilmayman. Aytib bergan emassiz!

- Onaxotinmi? Onaxotin ulug' ayol edi. Uni Onaqut, Anaxita deb ham atashgan. U ota-bobolarimizni qirilib ketishdan qutqarib qolgan edi. Bu afsona emas, bor haqiqat. Uni menga otam aytib bergan edilar. Eshit, sen ham bilib qo'y, bu xalqimiz uchun juda qadrlilik ertak. Yana shu esingda bo'lsinkim, bolam, o'z tarixingni qancha ko'p bilsang, shuncha kuchli va uddaburon bo'lasan!

...Qadimda bir yurt bor edi. Uni O'z kent deb atar edilar. Bu boy, sersuv o'lka edi. Odamlari mehmondo'st, sodda, tanti kishilar edi. Ostonalariga g'animlari ham kelsa, ochiq yuz bilan kutib olib, uch kungacha mehmon qilishar, so'ng maqsadlarini so'rab, ishlarini bitirib berishardi. Sayyoh kelsa, yedirib-ichirib, ot, tuya va pul berib, yo'lga kuzatib qo'yardilar. Alp yigitlari, go'zallikda oyni uyaldiradigan barmo qizlari ko'p edi. Ularda qanotli otlar ham bor edi. Xullas, mamlakat odamlari halol topib, halol yeb-ichib, xotirjam hayot kechirardilar.

Baland adirlikda Otashxona bo'lib, atrofi oppoq toshlar bilan o'ralgan qal'a edi. Uning o'rtasida oppoq to'rtburchak tandirda mangu olov yonib turar, o'z kentliklar har erta u yerdan cho'g' olib ketishardi.

Tangri Tog'ning ortida Devlar makoni bo'lib, ularga yov edi. G'anim O'z kent mamlakatini bosib olish uchun tayyorgarlik ko'rib yurar, ularni Yer yuzidan butunlay yo'q qilib tashlash uchun Iblisni ham o'zlariga og'dirib olishgan edi. Iblis Otashxonadagi olovni o'g'irlash payida yurardi.

Qahraton qish kunida Devlar makonidagi - yovlar - O'z kent mamlakatiga bostirib kelishib, shahar ahlini qilichdan o'tkazishibdi. Mamlakat podshosining xobxonasiga bostirib kirib, bola-chaqasi bilan o'ldirib, otashxonani ham vayron etibdi. Podshosiz qolgan xalq nima qilarini bilmay qayg'uga botibdi.

Iblis Otashxonaga kirib, mangu olovni o'g'irlab ketibdi.

O'z kentda alp qomatli, dono qiz yashar ekan. Qilichbozlikda, suzishda, otda chopishda mohir, boz ustiga, va'zxonlikda unga teng keladigani yo'q ekan. U yeng shimarib dushmanga qarshi kurashga chiqibdi. Har tomonga sochilgan o'z kentliklarni to'plab, shunday va'z o'qibdi, uning otashin nutqidan o'z kentlik yigitlar yer chizib qolibdilar.

- Nahotki, chumolichalik kuchingiz bo'lmasa, - debdi u. - Fil ularga hujum qilganda, birlashib, uni yenggan ekanlar. Bitta cho'pni sindirish oson, lekin o'ntani, yuztani sindirish qiyin. Birlashib, yovga zarba beraylik. Men sizlarni ularga qarshi boshlab boraman. Rozimisizlar?

- Rozimiz! - debdi yigitlar.

O'z kentliklar alp qiz boshchiligida yovga qarshi kurashibdilar. Jang uch kecha-yu kunduz davom etibdi. Alp yigitlarning hamlasiga dosh berolmagan g'anim yengilib, tum-taraqay qochibdi. Ularga g'alaba yor bo'lib, yurtda tinchlik o'rnatilibdi. Xalq mehri jo'shib, qizga Onaxotin degan yuksak nom beribdi.



To'lqin HAYIT

Qish qahrini sochib, chor-atrof muzlab qolibdi.

Onaxotin mangu olovni olib kelish uchun Iblisni izlab ketibdi. U juda olisda ekan. Onaxotin uni quvib yetib, ikkiga bo'lib tashlabdi, ammo mangu olovni ushlab ololmabdi. Iblis uni Qora Tuynukka tashlab yuboribdi. Qora Tuynuk shunday joy ekanki, unga tushgan narsa nom-nishonsiz g'oyib bo'larkan.

Xalq bu voqeani eshitib, oh tortibdi.

Onaxotin yana donolik qilibdi.

- Sira tashvish chekmanglar, - deya tinchlantiribdi odamlarni, - mangu olov o'rniga o'zimiz olov yaratamiz, - debdi.

- Qanday qilib yaratamiz? - deya hayron bo'lishibdi ular.

- Ona Quyosh bizga yordam beradi, - debdi u va mamlakatdagi barcha me'morlarni, olimlar-u ustalarni chaqirib, olti metrli haykal bunyod etishni, uning qo'lidagi shisha naydan otashxonaga nur tushib, quruq o'tinlarni yondiradigan darajaga yetkazishni amr etibdi.

Barcha ilmi kishilar ustalar bilan birga bir oy bosh qotirib, haykal loyhasini tayyorlabdilar. Bunga juda ko'p bilimlarini sarf etibdilar. Eng mohir chizmakashlar haykalning shakl-shamoyilini yasabdi. Kimyogarlar unga xom ashyo topibdilar. Hisob-kitobchilar uning qiyofasi, bo'y-basti, qo'lida o'rnatiladigan billur shishadan quyoshdan tushadigan nur vaqtini belgilab beribdilar. Xullas, haykal katta bilim va mahorat bilan bunyod etilibdi va otashxonaga nur tushib, quruq o'tin yondirilibdi. Bu kun Navro'z kuniga to'g'ri kelibdi. Otashxonadagi muz ostida qolgan bug'doylar issiqda erib, suvga aylanibdi.

- Essiz shuncha bug'doy, endi nima qilamiz!? - deya qayg'urishibdi ular.

Ertasi bug'doyning suvi biqirib qaynab, jigarrang qiyomga aylanib qolganini ko'rishibdi. Yalab ko'rsalar, juda shirin ekan. Kimdir:

- Suv malak bo'libdi, - deb yuboribdi.

- To'g'ri, Yaratgan egamiz bizga bug'doy suvidan malak yaratib berdi. Kelinglar, bunga shukrona aytaylik, - debdi Onaxotin.

Qariyalar yangi taomni Suvmalak deb nomlashni taklif etibdilar. Taklif qabul qilinib, elga taom tortilibdi. Suvmalakni yalagan qari-yosh kuchga to'lib, bir g'ayratiga o'n g'ayrat qo'shilibdi. O'shandan so'ng har yili Navro'z kuni shishadan nur tushib, qayta olov yoqiladigan va shu kuni Suvmalak pishirilib, elga tarqatish an'anaga aylanib qolibdi.

Bu dunyoda hech kim ustun bo'lmaydi. Onaxotin qarib, olamdan ko'z yumibdi. Uni izzat-ikrom bilan dafn etibdilar. Oradan yillar o'tibdi. Bora-bora xalq haykalni Onaxotin nomi bilan atay boshlabdilar.

- O'sha haykal hozir ham bormi?

- Uni g'anim askarlari buzib yuborganlar. Buzmaganlarida, bugun Onaqut haykali dunyoning yetti mo'jizalaridan biri sifatida insoniyatga xizmat qilib turgan bo'lardi.

- Ota-bobolarimiz shunchalik bilimdon bo'lgan ekanlar-da, buvijon?

- Bo'lmasam-chi? Ular bilimdon va adolatli bo'lmaganlarida, bugun senga bu ertakni aytmagan bo'lardim.



USTOZNING UMIDI KATTA

Qadrli bolajonlar! Cheksiz orzu umidlar ila siz har kuni maktabingiz quchog'iga kelasiz. Sizning aka-opalaringiz ham akademik-litsey hamda kasb-hunar kollejlari xuddi shunday niyatlar bilan qadam qo'yadilar.

Bilasizmi, bolalar, nega fikringiz tiniq, qadamingiz shaxdam ekanligini? Chunki sizlar buyuk sohibqiron Amir Temur avlodlarisiz. Davlatimiz tomonidan ham sizning har tomonlama barkamol inson bo'lishingiz uchun yetarli imkoniyatlar yaratilgan.

Poytaxtimizning Yunusobod tumanida 259-maktab bor. Ular hayotiga nazar solsangiz, darsdan so'ng sport mashg'ulotlariga qatnashib, murabbiylari Anatoliy

Groxovskiydek mehribon ustozlarini behad quvontirmoqdalar.

– Jamoamiz o'quvchilari, – deydi murabbiy, – kechagina shahar birinchiligi musobaqasida qatnashdilar. Bahslarda maktabimiz basketbolchi o'g'il bolalarimiz 2-o'rinni band etishdi. Musobaqada g'olib bo'ldik. G'oliblikning gashti o'zgacha. Mening shogirdlarim chempion bo'lishga intiladi. Mashg'ulotlarimiz albatta



samarasini berishiga ishonaman.

Kelajakda yo'llari yorug', maqsadlari ulug', qadamlari qutlug' bo'lgan o'quvchilarimdan umidim katta.

Muzaffar AHMEDOV

BAHORNIGI SOG'INIB YASHAYMAN,

– deydi O'zbekiston madaniyat va sport ishlari vazirligi xodimi, sport jurnalisti Haydar AKBAROV.

– Namanganda qir-adirlari osmonlar bilan bo'ylashgan Iskovat qishlog'i bor. Mening bolaligim o'sha yerda kechgan. Esini taniy boshlagan har bir qishloq bolasi kabi men ham Navro'z bayramini sog'inib kutardim. Navro'z qishlog'imizga o'zgacha tarovat bilan kelardi. Bepoyon qirliklar, gullarga burkangan maydonlar bayramga oshiqqan yosh-u qari bilan gavjum bo'lardi. Doshqozonlarda biqirlab qaynayotgan sumalak biz bolakaylarga ajib mo'jiza bo'lib ko'rinaridi.

Sumalak pishishini kutib, tengdoshlarimiz bilan «Zuv – zuv», «Quloq cho'zma», «Varrak», «Oq terakmi, ko'k terak», «Chavondoqlik» kabi o'yinlarni maroq bilan o'ynardik. Tog'li qishlog'imizda ot va eshak o'sha mahalda asosiy ulov hisoblanardi. Har birimiz chavondoqlikda ham o'zimizni sinab ko'radik.

Doshqozon boshidagi kayvoni onaxonlar o'yinga berilib ketgan biz bolakaylarni qozon boshiga chorlab turishardi.

– Ho'v, shumtakalar, yuz-qo'llaringni yuvib, ko'nglingdagi yaxshi niyatlarni Ollohdan so'rab, qozonni kovlanglar, bu qutlug' kundagi niyatlar albatta ijobat bo'ladi.

Qutlug' kunlar arafasida sportga oshno bo'lgan har bir bolajonga kelajakda chempion bo'lib yurt bayrog'ini jahon uzra ko'z-ko'z etishlarini tilab qolaman.



HAMALNI KUTGAN KUNLAR

Namangan tumanidagi Beshkapa qishlog'ida qad rostlagan yangi sport maktabi ham endi Namanganning turfa gullariga burkanadi.

Ushbu sport maktabidagi ilk musobaqani Navro'z bayrami boshlab beradi. Ustozlarning maqsadi aniq. Qishloqda chempion bolalar sonini ko'paytirish.

Zamonaviy ko'rinishga ega maskanda yopiq va ochiq sport zallari, maydonchalar o'ziga xos bezatilgan. Bu yerda



bolalar sportning o'nlab turida mashg'ulotlarda chiniqishni boshlab yubordilar. 30 million so'mlikdan ortiq yangi sport jihozlari bilan ta'minlangan majmuada hozir mashg'ulotlar beshkapalik bolalarni bo'lajak musobaqalarga hozirlamoqda.

– Senga sumalak olib keldim, mazza qilib yeb ol, – dedilar onajonim mehribonlik bilan.

O'sha kuni sumalakni bir o'zim paqqos tushirdim. Oh, uning mazaligini. Tongda turganimda esa o'zimni yengil, bardam his qildim. Shunda onajonim:

– Sumalakni quvvatini sezdingmi, miriqib uxlaganingdan bildim, – dedilar.

Ertasi kuni esa mashg'ulotlar vaqtida ham hammadan chaqqonligimni isbotladim. Ayniqsa, har uch oyda topshiradigan sinov mashg'ulotlarimizda ham 30 metrga yugurishda 5 soniyada yetib keldim.

Aytmoqchi, men Markaziy «Paxtakor» bolalar futbol akademiyasining a'zosiman. Uch yildan beri murabbiyim Lenur Yeremeyevdan futbol sirlarini o'rganyapman. Kelajakda niyatim o'zbek futbol yulduzi Mirjalol Qosimovdek mashhur futbolchi bo'lish.

Istardimki, barcha tengdoshlarim sport bilan do'stlashsin. Chunki sport insonni tarbiyalaydi.

Elimizga bahor kirib keldi. Mashhur futbolchilikka havas qilgan o'rtoqlarimga ham bahor ne'matlari – sumalak, halim, ko'k somsalaridan to'yib-to'yib bahramand bo'lishlarini istardim.

SUMALAKNING SEHRI BOR



Otabek BEKBOYEV,

Chilonzor tumanidagi 178-maxsus maktabning 4-«A» sinf o'quvchisi

BAHOR BILAN

QAVTGAN MURABBIY

– Bolaligimdan Navro'zga mehribon o'zgacha. Tabiat uyg'onadigan bu pallada ko'nglim allanechuk zavqqa to'ladi. Uzoq yillar ishlagan kollejdanda birmuncha vaqt uzoqlashib ketdim. Hozir yana bolalar mehri bilan bandman. O'quvchilarimdan Murtoz Jomurodov tengdoshlari orasida g'olib bo'lib, «Barkamol avlod» respublika musobaqasiga yo'llanma oldi.

Bu yilgi Navro'z ayyomi ajoyib xushxabarlari bilan men uchun yana-da qadrli bo'lib qoladi, – deydi Qarshi shahridagi Olimpiya zahiralari kollejining yengil atletika bo'limi murabbiyi Shavkat aka Xolyorov.

Sport bilan chiniqsang

*Asl tilla bo'lasan,
Kasal bo'lmas bo'lasan.
Doim quvnoq yurasan
Sport bilan chiniqsang.*

*Yengil bo'lib o'sasan,
Kuchga to'lib o'sasan,
Sinovlardan o'zasan
Sport bilan chiniqsang.*



X.SAFAROV



BUGUNNING



«YANGI AVLOD» LARI

Tanishing: Navoiy viloyati, Zarafshon shahri Navoiy kon-metallurgiya kombinati «Madaniyat saroyi» qoshida tashkil etilgan «Binafsha» milliy raqs guruhi. Milliy raqs guruhi tashkil etilganiga uncha ko'p bo'lgani yo'q. Ammo uning a'zolari tuman, shaharda o'tkazilayotgan barcha ommaviy tadbirlarda go'zal raqslari bilan muntazam qatnashib kelmoqdalar. «Binafsha» «Yangi avlod – 2007» bolalar ijodiyoti festivalining «D» – xoreografiya yo'nalishi goli hamdir.

– G'oliblik guruh qatnashchilari hayotida o'chmas iz qoldirdi. Umid qilamizki, g'oliblik ijodiy faoliyatimizni yana-da rivojlantirishga, o'z ustimizda ko'proq ishlashga undaydi. Bu festivaldan so'ng yana-da ulkan marralarni zabt etishni istaymiz va buni o'z oldimizga maqsad qilib olganmiz, – dedi guruh rahbari Zulayho Mamadiyorova.

Biz ham ularga ulkan zafarlar tilaymiz.

Xabaringiz bor, gazetamizda bugunning «Yangi avlod»lari sahifasini tashkil etganmiz. «Yangi avlod – 2007» bolalar ijodiyoti festivali g'oliblari bilan tanishtirishda davom etamiz.

Nazokatxon TOJIBOYEVA,
O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti talabasi

KÈCHA VA KUNDUZ

Oy bilan quyosh uzoq yillar birga yashashgan ekan. Yulduzlar ularning bolalari bo'lib, birgalikda ahil-inoq kun kechirishar ekan. Osmondagi momaqaldiroq esa ularning tinch, osoyishta hayotlarini ko'ra olmabdi. Va qanday bo'lmasin, oy va quyoshni ajratish niyatida o'rtalariga nizo solibdi. Uzoq davom etgan kelishmovchilik ularni ikkiga ajratibdi. Quyosh nurlari bilan olamni yoritib, o'zi tanho qolibdi. Bolalari esa oy bilan yashay boshlashibdi. Shundan beri quyosh chiqqanda oy botib, oy chiqqanda quyosh arazlab ketar ekan. Shu tariqa kecha va kunduz ham paydo bo'libdi.

Shahnoza
JUMAYEVA



BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin SHOYODGOROV
Navbatchi:
Ma'mura MADRAHIMOVA

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruz MATYOQUBOV

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 59115
Buyurtma N: J 4885

**«AZALIY AYYOM» TOPSHIRIQLI
AYLANMA SKANVORDI**

1 Obod maskan	Gul sevar qush	"Ko'z"ii giyoh	Bahor soch-popugi	2 Ayyom taomi	Bo'lgusi gul, barg	Askija mavzusi
Oq, sariq gul	N	"Navro'z kunida" muallifi	A	Hashamatli hayot	V	Bahor uchqichi
4 Ayyomni tariflagan alloma	Xushboy oshkok ekin	"Gul va Navro'z" muallifi	Qush, ko'klam elchisi	6 Xushbo'y poliz ekini	7 Xushbo'y, ko'kat	Ot musobaqasi
Xorazmlik shoir	R	Yashil, ko'rkam fasl	O	Izzat, ehtirom	Z	O'ralgan hovli, joy
Qo'shiq, madhiya	Navro'zga asos solgan shoh	9 Samo'ning turfa rang ko'rki	Ko'hna yurt, viloyat	10 Hushbo'y ko'rkam gul	Ko'klamgi o'yin	Birinchi hosil

Javoblarni shaklda belgilangan xonadan soat mili yo'nalashida yozing. Skanvordni to'g'ri hal etgan bo'lsangiz, shaklning raqamli xonalaridagi harflarni ketma-ket o'qing. Bunda ulardan o'rtincha asr falokiyot va riyoziyot olimi, ruboiynavis shoir

Umar Hayyomning sharqona bahoriy ayyomning yuzaga kelishi borasida qiziqarli ma'lumotlar bayon etilgan nodir asari nomini bilib olishga muvaffaq bo'lasiz.

Foziljon ORIPOV tuzdi

